

ONOMASTIKA

ОНОМАСТИКА ONOMASTICS

2024

№2

ONOMASTIKA

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XALQARO ELEKTRON ILMIY JURNAL

ОНОМАСТИКА

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ONOMASTICS

KARSHI STATE UNIVERSITETE
INTERNATIONAL ELECTRON SCIENTIFIC JOURNAL

2024/2

QARSHI – 2024



**“ONOMASTIKA”
XALQARO ELEKTRON
ILMIY JURNALI**

Bosh muharrir:

Xo‘jamurod JABBOROV
f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Vazira NAFASOVA f.f.f.d.
(PhD) (O‘zbekiston)

Mas’ul kotib:

Ra’no SAYDULLAYEVA
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Xalqaro elektron ilmiy jurnal
2024-yil 31-yanvarda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 215315 raqamli
guvohnoma bilan ro‘yxatga
olingan.

**MUROJAAT UCHUN
MANZIL:**

Pochta manzili: 180003,
Qarshi,

Ko‘chabog‘17.Qarshi davlat
universiteti, Filologiya fakulteti
binosi, 219-xona.

Telefon: , +998912205238;
TelegramID:

<https://t.me/QarDUonomastika>
Elektron pochta: e-mail:
xojamurod@list.ru

Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

TAHRIR HAY’ATI:

| | |
|---------------------------------|---------------------------------------|
| Mail Binnat ASKEROV | f.f.d., professor (Ozarkayjon) |
| Marina Vasilyevna GOLOMIDOVA | f.f.d., professor (Rossiya) |
| Dilmurod HOMIDOV | f.f.d., professor (Tojikiston) |
| Nishonboy HUSANOV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Suyun KARIMOV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Hikmet KORAS | f.f.d., professor (Turkiya) |
| Nelli Aleksandrovna KRASOVSKAYA | f.f.d., professor (Rossiya) |
| Lala Guseyn qizi KULIYEVA | f.f.d., professor (Azerbaydzhan) |
| Nizomiddin MAHMUDOV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Ibodulla MIRZAYEV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Siddiqjon MO‘MINOV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Firangiz Shaxmurovna PASHAYEVA | f.f.d., professor (Turkiya) |
| Muhammadovud Qayum SALOMIYON | f.f.d., professor (Tojikiston) |
| Abdulkay SOBIROV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Vasiliy SUPRUN | f.f.d., professor (Rossiya) |
| Nosirjon ULUQOV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Durdona XUDOYBERGANOVA | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Maralbek YERMUXAMET | f.f.d., professor (Qozog‘iston) |
| Odil BEGIMOV | f.f.d., dotsent (O‘zbekiston) |
| Maysara DANIYEVA | f.f.d., dotsent (O‘zbekiston) |
| Muyassar SAPARNIYOZOVA | f.f.d., dotsent (O‘zbekiston) |
| Mo‘min TURDIBEKOV | f.f.d., dotsent (O‘zbekiston) |
| Ochil BO‘RIYEV | t.f.n., professor (O‘zbekiston) |
| Komil MARKAYEV | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Bayramali KILICHEV | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Sharifjon YOQUBOV | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Abdivohab ZAKIROV | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Dilrabo ANDANIYOZOVA | f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston) |
| Sabohat KENJAYEVA | f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston) |
| Yulduz NE‘MATOVA | f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston) |
| Feruz RAJABOV | f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) (Kotib) |
| Sherali TEMIROV | f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston) |

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

| | |
|-----------------------|---------------------------------------|
| Akmal SAIDOV | y.f.d. akademik (O‘zbekiston) |
| Qalandar ABDURAHMONOV | i.f.d. akademik (O‘zbekiston) |
| Dilmurod NABIYEV | i.f.d. professor (O‘zbekiston) |
| Zaribbay DO‘SIMOV | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Ilhom BEKPO‘LATOV | f.m.f.d. (O‘zbekiston) |
| Elzara GAFIYATOVA | f.f.d., professor (Rossiya) |
| Gulbahor TOJIYEVA | f.f.d., professor (O‘zbekiston) |
| Otabek SHUKUROV | f.f.d., dotsent (O‘zbekiston) |
| Nilufar YO‘LDOSHEVA | f.f.d., dotsent (O‘zbekiston) |
| Baxtiyor RIZAYEV | f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston) |
| Roxila RUZMANOVA | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Yashnar AVLOQULOV | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Muyassar TILLAYEVA | f.f.n., dotsent (O‘zbekiston) |
| Dildor SHODMONOVA | f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) |
| Dilshoda IBRAGIMOVA | f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) |
| Quvondiq OLLOYOROV | f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston) |
| Nilufar MO‘MINOVA | f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) |

MUNDARIJA

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

| | |
|--|---|
| Azamatova Odinaxon. Artionimlarni o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari va nomlash tamoyillari | 8 |
|--|---|

ONOMASTIKA VA NEYMING (BRENDOLOGIYA)

| | |
|---|----|
| Begimov Odil. Zamonaviy ergonomik terminologiyaning shakllanish omillari va xususiyatlari (Qarshi shahar ergonimlari misolida) | 17 |
| Shukurov Otabek. Leksikadagi yangi ergonimlar tahliliga doir | 26 |

ONOMASTIKADA IMLO MASALALARI

| | |
|--|----|
| Sattarova Nargiza. Andijon viloyati joy nomlarining imlosi masalasi | 35 |
|--|----|

ANTROPONIMIKA

| | |
|---|----|
| Muminov Sidiqjon, Abdullayev Ziyodbek. O‘zbek va nemis tillari antroponimlarining assosiativ ko‘plik shakllari | 43 |
|---|----|

TOPONIMIKA

| | |
|---|----|
| Karimov Suyun, Turdimurodov Uyg‘unjon. Toponimlarni tadqiq etishda semiotik metodning o‘rni | 59 |
| Kilichev Bayramali. Buxoro toponimiyasidagi arab tiliga xos lug‘aviy birliklar ... | 57 |
| Hamidov Xayrulla. Istanbul toponimlarining leksik-morfologik xususiyatlari (“köy” komponentli nomlar misolida) | 64 |
| Zakirov Abduvahob. Jizzax mintaqasi toponimik tizimida tov//tav, tog// tuu// too//tog‘ so‘zлari | 73 |
| Safarova Maftuna. Rang ifodalovchi so‘z asosidagi etnonimdan shakllangan toponimlar | 80 |

14. Кораев С. К. Древние топонимы Средней Азии в согдийских документах с горы Муг. Ономастика Средней Азии. – Фрунзе, 1980. – с.141-142.
15. Курышжанов А.К. Исследования по лексике старокыпчакского письменного памятника XI в. “Тюркско-арабского словаря”. – Алма-Ата, 1970. – С. 197.
16. Савина В.И. Географическая терминология Таджикистана. – М. 1975. – С. 29, 108, 55, 22, 21, 95, 34.
17. Хромов А.Л. Очерки по топонимике и микротопонимике Таджикистана. – Душанбе, 1975. – 86 с. – С. 14-18.
18. Хуррамов К. Узбекские народные географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана. – Т., 1973, 20.
19. Фазылов Э.И. Шарқнинг машҳур филологлари. – Т., 1971, 35-67.

RANG IFODALOVCHI SO‘Z ASOSIDAGI ETNONIMDAN SHAKLLANGAN TOPONIMLAR

Safarova Maftuna Zoir qizi

Buxoro davlat universiteti

m.z.safarova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyati, uning tumanlar kesimida tarqalgan etnonim asosli topominlarning shakllanishida rang bildiruvchi so‘zlarning semantik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Rang ifodalovchi so‘zlarning tilshunoslik hamda toponimikada qanday ma’no anglatishi, o‘xshash va farqli jihatlari bayon etilgan. Buxoro viloyati toponimiyasidagi geografik nomlar tarkibida ot, fe’l, sifat kabi so‘z turkumlarga oid birliklar faol, son, ravish, olmosh so‘z turkumlari kam qo‘llaniladi. Etnotoponimlar tarkibida qo‘llangan oq, qora, qizil, sariq singari lug‘aviy birliklar esa o‘tmishda turkiy xalqlar hayotida totemik, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar anglatishi bilan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Tahlillar natijasida, Buxoro viloyati toponimiysi tarkibida ko‘pgina rang ifodalovchi so‘zlar uchrashi va ulardan ko‘pchiligi oq va qora ranglari asosida hosil qilinganligi misollar asosida ko‘rsatib berilgan

Kalit so‘zlar: etnonim, toponim, etnotoponim, ot, sifat, son, fe’l, oq, qora, qizil, sariq, totemistik, mifologik, urug‘, qabila.

ТОПОНИМЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ ОТ ЭТНОНИМОВ НА ОСНОВЕ ЦВЕТО ОБОЗНАЧАЮЩИХ СЛОВ

Сафарова Мафтуна Зоир кизи

Бухарский государственный университет

e-mail: m.z.safarova@buxdu.uz

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические особенности слов, обозначающих цвет, в образовании топонимов с этническим соусом, распространенных в Бухарской области и ее районах. Указано значение слов, обозначающих цвет в лингвистике и топонимике, их сходства и различия. В составе географических названий в топонимии Бухарской области активны единицы, относящиеся к группам слов, такие как существительные, глаголы, прилагательные, редко употребляются числовые, наречия и местоименные группы слов. Такие лексические единицы, как белый, черный, красный и желтый, используемые в составе этнотопонимов, в прошлом имели важное значение в жизни тюркских народов, поскольку обозначали тотемические, мифологические, религиозные, художественные и философские понятия. В результате анализа топонимии Бухарской области содержит много цветных слов и на примерах показано, что большая часть из них образована на основе белого и черного цветов, а этнотопонимы, образованные на основе другие цветные слова, кроме слов «белый» и «черный» в этом регионе.

Ключевые слова: этноним, топоним, этнотопоним, имя существительное, имя прилагательное, имя числительное, глагол, белый, черный, красный, желтый, тотемистический, мифологический, род, племя.

TOPONYMS FORMED FROM ETHNONYMS BASED ON WORDS DENOTING COLOR

Safarova Maftuna Zoir kizi

Bukhara State University

e-mail: m.z.safarova@buxdu.uz

Abstract. This article examines the semantic features of words denoting color in the formation of toponyms with ethnonyms as a common element in the Bukhara and its regions. The meaning of words denoting color in linguistics and toponymy, their similarities and differences are indicated. As part of geographical names in the toponymy of the Bukhara region, units related to groups of words, such as nouns, verbs, adjectives, are active; numerical, adverbs and pronominal groups of words are

rarely used. Lexical units such as *oq* (white), *qora* (black), *qizil* (red) and *sariq* (yellow), used as part of ethnotoponyms, in the past were important in the life of the Turkic peoples, since they denoted totemic, mythological, religious, artistic and philosophical concepts. As a result of the analysis, the toponymy of the Bukhara region contains many color words and examples show that most of them are formed on the basis of *oq* (white) and *qora* (black) colors, and ethnotoponyms formed on the basis of other color words, except for the words “white” and “black” in this region.

Keywords: ethnonym, toponym, ethnotponym, noun, adjective, numeral, verb, white, black, red, yellow, totemic, mythological, clan, tribe.

Kirish. Respublikamiz, xususan, Buxoro viloyati toponimiyasidagi geografik nomlar tarkibida ot, fe'l, sifat kabi so'z turkumlarga oid birliklar faol, son, ravish, olmosh so'z turkumlari kam qo'llaniladi. Etnotponimlar tarkibida qo'llangan *oq*, *qora*, *qizil*, *sariq* singari lug'aviy birliklar o'tmishda turkiy xalqlar hayotida totemik, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar anglatishi bilan muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Asosiy qism. S.Otaniyozovning ko'rsatishicha, turkman etnonimlari orasida shaxsning terisi, ko'zi va sochining rangiga ishora qilib atalgan urug' va qabila nomlari uchraydi. Masalan, *akgashlar* (*oq qoshlar*), *oqgulak* (*oq quloq*), *appak* (*oppoq*), *mele*, *melebash*, *melete* (*malla*, *mallabosh*), *sur*, *surja* (*русоволосые*), *sari*, *sarik*, *sarija* (*sariqboshhlilar*), *gara*, *garaja*, *zenqi* (*qora*, *qoracha*, *zangi*), *karagash* (*qoraqosh*), *garagoz* (*qorako'z*), *garasaqal* (*qorasoqol*), *gilli*, *to'yli* (*tukli*), *kese* (*ko'sa*), *gizilsagal* (*qizilsoqol*) [2;14]. Bu kabi belgililar qabiladagi insonlarning tashqi ko'rinishlarlaridan kelib chiqib, keyinchalik ularning nomiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki ranglar turkiy xalqlar tilida ba'zi ramziy ma'nolarni anglatganligi ma'lum. Chunonchi, *sariq rang* – oqsuyak, aslzoda tushunchasini, *qizil* – janubni, *oq* – kun chiqish tomonni, *qora* – kun botish tomonni ifodalaydi. Bu masalada K.Shoniyozov shunday deydi: “Qadim davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar, shimol, janub, sharq, g'arbni ranglar nomi bilan ataganlar. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko'k rang sharqni, oq rang g'arbni, oq rang markazni ifodalagan. Ma'lum bir qabila ittifoqida bo'lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o'tishi bilan tomonlarning nomlari (rang nomlari) etnonim bo'lib qolgan. Shu ma'noda qizil o'g'uzlar janubiy o'g'uzlar ma'nosini anglatgan. Demak, bugungi kunda rang ifodalovchi so'zlar etnonimlar bilan birga kelganda qutb tomonlarini aniqlashga xizmat qilgani anglashiladi. Bunday etnonimlar faqat rang-tusni bildiruvchi so'zlardan hosil bo'ladi, deyish o'rinli emas, chunki ularning ayrimlari xususiyat bildiruvchi so'zlar asosida yuzaga keladi [4, 83]. Tadqiqotchilar *karaman* etnonimi “*qorachadan kelgan odam, qora sochli odam*” ma'nosini [7, 136-139], ko'k turk etnonimi tarkibidagi ko'k so'zi “*o'rmon*”, ya'ni “*o'rmonda yashovchi turklar*” ma'nosida ekanini aniqlashgan [8, 14]. Z.Do'simov

qora so‘zi Xorazm shevalarida etnonim va toponimlar tarkibida ko‘plik ma’nosini anglatishini yozgan [5;33]. Demak, oq, qora, ko‘k, sariq, qizil kabi so‘zlar rang ifodalashdan tashqari, etnotoponimlar tarkibida kelganda *katta*, *yuksak*, *keng*, *ko‘p*, *sof*, *toza* kabi lug‘aviy ma’nolar ifodalab kelishi ma’lum bo‘lmoqda.

Shuni aytish lozimki, toponimlar tarkibida *oq*, *qora*, *ko‘k*, *sariq*, *qizil* so‘zlari uchraydi. Ammo qo‘llanilish darajasiga ko‘ra *oq* va *qora* so‘zlari faol. Kuzatishlarimiz natijasida, Buxoro viloyati etnotoponimlari tarkibida, asosan, *oq* va *qora* ranglari bilan aloqador nomlar uchradi va bu so‘zlar asosida 25 ta etnotoponimning mavjudligiga amin bo‘ldik.

Rang bidiruvchi joy nomlariga qiziqish ko‘pgina ilmiy qarashlarni keltirib chiqargan. Shulardan biri Samarqand etnooykonimlarini tadqiq etgan A.Turobov oq, qora, sariq, ko‘k, qizil so‘zlarini qo‘shish orqali yasalgan joy nomlarini quyidagicha tasniflagan:

a) aholi punktlari turini bildiruvchi *qo‘rg‘on*, *qishloq*, *ovul*, *guzar*, *mahalla* so‘zlari bilan kelgan *oq*, *qora*, *sariq*, *ko‘k*, *qizil* so‘zlari rang ma’nosini ifodalamaydi: *Ko‘kdala*, *Oqbosh*, *Oqmang‘it*, *Qoraguzar*, *Qoraqishloq*. Bu kabi joy nomlarining nomlanishida ifodalanayotgan obyektning ko‘rinishi, tuzilishi, hajmi, miqdori, qaysi toifa kishilar tomonidan yaratilganligi yoki kimlarga xizmat qilishi kabi xususiyatlar asos qilib olinganligini ko‘rish mumkin;

b) suvlak turini bildiruvchi *daryo*, *suv*, *ariq*, *buloq* so‘zlar bilan birga kelgan rang bildiruvchi so‘zlar o‘ziga xos ma’nolarni ifodalaydi. Ular qor suvlari bilan to‘yinish, oqim tezligi, oqmoq fe’li, oqish, qizg‘ish, yashil, tog‘ bag‘ridan boshlanadigan ma’nolarni bildiradi: *Oqdaryo*, *Qoradaryo* singari;

c) yer yuza tuzilishi turlarini bildiruvchi *tепа*, *jar*, *qum*, *tosh*, *mula* so‘zlari bilan birga kelgan rang bidiruvchi so‘zlar asosida yasalgan joy nomlari: *Oqtosh*, *Qorabayir*, *Ko‘ktepa*, kabilar. Bu singari nomlar relyef turlari va tabiatini, tabiiy sharoitini ifodalash uchun qo‘llanilgan;

d) rang-sifat bildiruvchi so‘zlar etnonim bilan birga keladi va bir etnotoponimni hosil qiladi. Muallif ularning shakllanishida ikki xil holatni ko‘rsatadi: birinchisida, etnonimlarda *qalpoq*, *to‘n*, *chakmon* so‘zlari ishtirok etadi. Etnik birlik nomlanishida ularning kiyimlari nazarda tutilgan: *Qoraqalpoq*, *Qorato‘nli*, *Qorachakmon* kabi. Keyinchalik bunday nomlanish asosida qishloqlar nomi yuzaga kelgan. Nomlanishida qishloq aholisining qaysi urug‘ga mansubligi e’tiborga olingani aytilsa, ikkinchisida, rang-tus bildiruvchi so‘zlar o‘zbek qabila-urug‘lari nomi bilan birgalikda etnonimlar hosil qilingan: *oqmang‘it*, *oqtepamitan*, *ko‘kqarg‘a*, *qaorakesak*, *qoracha*, *qoraunas*, *qoramana* kabilar [16, 59]. Bular ham keyinchalik shu etnos yashagan hudud nomiga ko‘chgan.

Yuqorida keltirilgan A.Turobov tasnifining “d” bandiga tayanishimiz mumkin, chunki rang ifodalovchi so‘zlar (oq va qora) etnonimlar bilan birga kelib, etnotoponimlarni hosil qilishdagi har ikki usulni Buxoro viloyati hududida uchratdik. Masalan, *Oqpo’lat* (Olot t., Olot shahri), *Oxshix* (Jondor t. Oqshix q.), *Qoraqalpoq* (Peshko‘ t., G‘ijduvon t.), *Qoraqulonchi*, (Qorako‘l t.), *Qorali* (Jondor t.), *Qoraun* (Qorako‘l t.).

Tahlillarimiz natijasida, Buxoro viloyati hududida *oq* va *qora* ranglarni ifodalovchi so‘zlar asosida etnotoponimlar yuzaga kelganligiga guvoh bo‘ldik. *Oq* va *qora* so‘zlarining ma’noviy xususiyatlari masalasida A.N.Kononov fikr birldirib, oq so‘zini oqmoq so‘zi bilan aloqadorligini aytib o‘tadi [9; 83, 85]. R.Musinning ilmiy qarashlarida esa “Tabiatda yuzlab minerallar va jinslar oq rangga egaligi, biroq Oqtosh Aktasi nomi bilan atalgan bo‘lsa, u yerda kvars borligiga ishora qiladi. Shu bilan birga, faqatgina kvarsni emas, tarkibida qo‘rg‘oshin, oltin va boshqalar bo‘lgan rudani, ancha boy, sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan kon mavjudligiga ishora qiladi” [12, 16]. Demak, *oq* so‘zi bir narsaning rangini emas, balki bir qancha narsalarning umumiyligi xususiyatidan kelib chiqib nomlashi mumkin va bu holatda *oq* so‘zi rang ma’nosini yo‘qotgan bo‘ladi.

Bugungi kunda ham tarkibida rang bildiruvchi so‘zlar uchraydigan turkiy etnotoponimlar saqlanib qolgan. *Oq so‘zining* izohli lug‘atda o‘n bir ma’noda ifodalanishi qayd qilingan: 1) *qor, sut, paxta rangidagi* (*oq doka, oq qog‘oz, oq non*); 2) *oq tusga moyil, tiniq* (*oq badan, oq tanli*); 3) *oqlik* (*sut-qatiq ma’nosida*); 4) *aroq* (*so‘zlashuv tilida*); 5) *chor Rossiysi podshosiga tegishli; uning tarafdori*; 6) *oxirgi, toza* (*oqqa ko‘chirmoq*); 7) *gunohsiz, sha’niga dog‘ tushmagan kishi; to‘g‘ri, haqiqat*; 8) *oqargan tuk* (*sochning oqi*); 9) *ko‘zning qorachiqni o‘ragan tiniq rangli, shaffof qismi*; 10) *ba’zi kasalliliklar natijasida ko‘z qorachig‘ida paydo bo‘ladigan oqish dog‘, parda*; 11) *tuxumning oqsil moddasi*.

Ma’lum bo‘ladiki, ushbu so‘z tabiatdagi *rang, shaxs, predmet va hodisa* bilan bog‘liq ma’nolarda ishlatiladi. Shuningdek, oq so‘zi toponimlar tarkibida ham tez-tez uchraydi. Nomshunos olim E.Begmatovning taddiqotlarida ham bu fikrlar xususida mulohaza yuritilgan [3; 6, 7].

Bulardan tashqari, etnonimshunos olim K.Marqayevning 70ga yaqin urug‘ va qabila nomlari tarkibida turli rang nomlari uchrashini aytib o‘tadi, aynan, oq so‘zi bilan aloqadorlariga shularni kiritadi: *oqtug, oqto‘nli, oqmang‘it, oqtana, oqtelpak, oqsalla, oqmo‘yin, oqpichoq, oqvoy, oqbo‘rboy, oqto‘qboy, oqsari, oqish//oqshiq, oqqalmaq, oqchepkan, oqquyunli, oqqa‘yli* va b [11; 85-86]. Aytish lozimki, olim sanab o‘tgan ushbu etnonimlar Buxoro viloyati toponimiyasida mavjud emas. Ammo oq so‘zi bilan bog‘liq *Oqpo’lat* (Olot t., Olot shahri), *Oxshix* (Jondor t. Oqshix q.) kabi etnotoponimlarni bir nechta tumanlarda takror-takror uchratdik.

Buxoro tumani mikrotoponimiyasini tadqiq etgan N.Adizovaning tadqiqtolarida *oq so‘zi* bilan bog‘liq toponimlar xususida fikr boradi, oq so‘zi rangtus ma’nosini ifodalashi bilan bir qatorda, uning “*hajm jihatdan katta, baland, me’yordagidan ortiq*” kabi ma’nolarda ham qo’llanishini izohlab o’tadi. Masalan, *Oqpo’lat* toponimi haqida to’xtalib, uning tarkibidagi *oq so‘zi* rang ifodalamasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu toponim etnonim asosida yuzaga kelgan bo‘lib, *oqpo’lat* – “*po’lat urug’ining katta qismi yashaydigan maskan*” [1, 56] ma’nosini ifodalab kelmoqda. Xulosa sifatida aytish lozimki, etnotoponimlar tarkibida *oq so‘zi* rang ma’nosidan tashqari boshqa leksik ma’no ifodalaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, *oq so‘zi* bilan bir qatorda *qora so‘zi* ham viloyat toponimlari tarkibida faol. O‘zbek tilida ko‘p qo’llanadigan ushbu so‘zning o‘ndan ortiq ma’nosи “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilgan [17, 335-337]. Ammo aytish joizki, toponimlar tarkibida qo’llanilgan *qora so‘zining ma’nosи* bu lug‘atda ko‘rsatilmagan. Toponimlar tarkibida *qora so‘zi* quyidagi ma’nolarda ifodalanishi mumkin: *tekislikdagi kichik balandlik, do’ng joy, kichik tepa, ko’p, zich, qalin* (bog‘, daraxt so‘zлari bilan bog‘langanda), *ko’p miqdordagi suv* (Qorabuloq), *yuksak, katta* (Qorako‘l), bundan tashqari, yonidagi boshqa do‘nglikdan vertikal ko‘lami jihatdan farqini bildiruvchi *yer, yer osti, buloq, daryo; ulug’, buyuk, qudratli, kuchli* va boshqalar [13; 248, 250]. Aytish lozimki, lug‘atda bayon etilgan izohlar vositasida *qora* komponentli toponimlarni sharhlashning imkonи yo‘q. Shunisi muhimki, *qora* komponentli toponimlarning aksariyati o‘z qatlamga mansubdir. Bu holatni, bizningcha, *qora so‘zining turkiy tillarga mansubligi* bilan izohlasak bo‘ladi. Qora so‘zini onomastikaning turli sohalarida uchratamiz. Masalan, *Qoradaryo, Qoraariq, Qorasuv* – gidronim, *Qorabog‘, Qorako‘l* – oykonim, *Qoraato, Qorako‘lcha* – nekronim, *Qoraqalpoq, Qoraqulonchi* – etnotoponim va h.k [10, 145-148]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, *qora so‘zi* tilda va onomastik tizimda o‘zining turli ifoda qirralari bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bu, albatta, o‘zbek tilining serqirraligini hamda keng imkoniyatlarga ega ekanligini asoslab ko‘rsatadi.

K.Marqayevning tadqiqtolarida *qora* rangi bilan aloqador quyidagi etnonimlarni sanab keltirishi yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Olim *qora so‘zi* ishtirokida yasalgan 40 dan ortiq etnonimlarni ko‘rsatib o’tadi: *qora, qoralar, jonqora, qorasiyroq, qoratelpak, qoratikan, qoratojli, qoraxon, qorabotir, qorabayir, qorabog‘//qoraboq//qorabov, qoramang‘it, qoraqo‘ng‘iroq, qoranayman, qoraxitoy, qoramana, qorabo‘ri, qorabo‘yin, qorabo‘riq, qorabuloq, qoragadoy, qorakaltak, qorakisa, qorako‘z, qoralochin, qoramurcha, qorapoycha, qorato‘nli, qoraturkman, qoraxo‘ja, qoracha, qorachopon, qoraqalpoq, qoraqanjig‘ali, qoraqozoq, qoraqurloq, qoraquchchi, qoraqum, qoraqo‘yli, qoraquyunli* va b [11]. Bu etnonimlar respublikamizning turli hududlarida tarqalgan bo‘lib, ko‘pgina joy

nomlarining yasalishida asos vazifasini bajargan. Xususan, *qoraxoni*, *qoraxitoy*, *qoramən*, *qoraqalpoq* kabi etnonim asosli toponimlar Buxoro hududida ham uchrashi ma'lum bo'ldi.

Bulardan tashqari, Buxoro toponimiyasida o'ndan ortiq qora komponentli nomlar mavjud. Bular sirasiga *Qorabobo* (Buxoro t.), *Qorabosh* (Shofirkon t., Do'rmon q.), *Qoravulon* (Shofirkon t., Jo'yrabot q.), *Qorako'l* (Qorako'l t.), *Qorako liyon* (Shofirkon t.), *Qoraqalpoq* (Peshko' t., G'ijduvon t.), *Qoraqulonchi*, (Qorako'l t.), *Qorali* (Jondor t.), *Qoraun* (Qorako'l t.), *Qoraxoni* (Romitan t., G'ijduvon t.) kabilarni sanash mumkin.

Buxoro viloyati toponimiyasidagi qora komponentli nomlarning ko'pchiligi etnonimlar asosida shakllanganligini inobatga olib, quyida ayrim toponimlarning ayrimlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Qoraxoni//Qaraxoni. Manbalarda qayd etilishicha, Ko'lobda yashovchi arablarning *sholbof* urug'iga qarashli tarmoq nomi – qoraxoni deb atalgan [14, 113]. Shuningdek, oqqipchoqlarning jag'altoy urug'iga qarashli tarmoqlardan birining nomi ham *qoraxon* deb yuritilgan. Shu sababdan aytish mumkinki, *qoraxon/qoraxoni* (Romitan va G'ijduvon tumanlaridagi joy nomlari shunday ataladi) etnonim hisoblanadi.

Qoraqalpoq. Turkiy xalqlarning biri sanalgan qoraqalpoqlar uzoq tarixga ega etnik guruh sanaladi. N.Oxunovning ma'lumot berishicha, Qoraqalpoq toponimi Farg'ona viloyatining *Dang'ara*, *Buvayda*, *Andijon* viloyatining *Izboskan*, *Andijon* tumanlarida ham mavjud [15, 77]. Ushbu etnos turli sabablar bilan hozirgi Buxoro viloyatining *Peshko'*, *Shofirkon* tumanlarida tarqalgan. Ular bunyod etgan aholi punktlari *Qoraqalpoq/Qoraqalpoqlar* deb nomlangan. Toponimning paydo bo'lishi etnonimga asoslangan. Bugungi kunda millat nomlari asosida shakllangan etnotoponim hisoblanadi.

Qoraqulonchi. Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. *Qoraqulonchi* – *qulonchi* (qulon) urug'inining bir tarmog'i. Yana shu tumanda *Qulonchi*, *Ariqbo'yiqulonchi* degan qishloqlar ham bo'lganligi aniqlangan. *Qoraqulonchi* tarkibidagi so'z ham qora leksemasining yuqorida sanab o'tilgan ma'nolaridan biri sifatida voqelashgan.

Ma'lumki, Buxoro toponimiyasida boshqa tillarga qaraganda, fors-tojik tilining ta'siri ko'proq sezilib turadi. Bu holat tarxiy jarayonlar natijasida vujudga kelgan. B.Kilichev viloyat toponimiyasida fors-tojik tilida rang atamasi bilan bog'liq nomlar uchrashini aytib o'tadi: *Siyohkoron* Buxoro shahridagi ko'cha nomi bo'lib, ushbu ko'chada rang bilan ishlovchi hunarmandlar istiqomat qilgan va o'z ustaxonalarida faoliyat olib borgan. Siyoh – qora rang (qiyyoslang: safed – oq, zard – sariq, kabud – ko'k va h.k.) [10]. Ammo kuzatishlarimiz natijasida, viloyat hududida fors-tojikcha rang ifodalovchi so'zlarni etnotoponimlar tarkibida uchratmadik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ko‘pgina manbalarda etnonimlarning faqat rang bildiruvchi so‘zlar asosida yuzaga kelganligi emas, balki ularning xususiyat ma’nosini ifodalay olishi haqida fikrlar berilgan. Masalan, qora so‘zi “*katta*”, “*ulkan*” ma’nolarini bildirib, bu asosida yuzaga kelgan *qorabog‘ish*, *qorateyit*, *qorabo‘yin* etnonimlari *bog‘ish*, *teyit*, *bo‘yin* urug‘larining ulkan, katta bo‘laklari hisoblanadi [6, 82]. Turkiy xalqlarda shunday farazlar mavjudki, turli ranglar orqali baxt va baxtsizlik, quvonch yoki qayg‘uni, boylik-kambag‘allikni, motam, kuch-qudrat yoki ojizlikni, bu dunyo va u dunyo haqidagi qarashlarni ifodalash ramzi sifatida qaralgan.

Xulosalar. Shunday ekan, toponimlar tarkibida sifat, son va boshqa turkumga mansub so‘zlar doim ham o‘z asl ma’nosida qo‘llanavermaydi. Sifatlar, ayniqsa, rang-tus ifodalaydigan birliklar kamdan kam holatlarda o‘z asl denotativ ma’nosini yuzaga chiqargan bo‘ladi. Buxoro viloyati hududidagi *oq* va *qora* komponentli toponimlarning katta qismida rang ma’nosi bilan aloqador bo‘lmagan ma’nolar ifodalangani to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdik. Rang-tus ma’noli so‘zlar, ayniqsa, etnonimlar asosida shakllangan toponimlarda, umuman, qo‘llanilmagani ma’lum bo‘ldi. Ammo etnonimlar tarkibida qadimda rang ma’nosi ifodalangan bo‘lsa-da, ular tayyor holda toponimga o‘tganligi uchun hozirda morfemalarga ajratilmaydi. Kuzatishlarimiz natijasida shuni ham aytib o‘tish kerakki, viloyat hududida *oq* va *qora* so‘zlaridan tashqari boshqa rang ifodalovchi so‘zlar asosida shakllangan etnotoponimlarni mavjud emas.

Adabiyotlar:

1. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B. 56.
2. Атаниязов С. Этнонимы в туркменском языке: Автореф., диссер. ... д-ра филол. наук. – Ашхабад, 1990. – С.14.
3. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.6-7.
4. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 1968. – Б.83.
5. Дусимов З. Топоними Северного Хорезма: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – С. 33.
6. Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқики: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б.82.
7. Еремеев Д.Е. К семантике тюркской этнонимии // Этнонимы. – Москва, 1970. – С.136-139.
8. Кононов А.Н. Грамматика языка рунических памятников VII-IX вв. – Ленинград: Наука, 1980. – С.44.

9. Кононов А.Н. О семантике слов Кара и ак в тюркской географической номенклатуре //Известия Отделения общественных наук АН Тадж. – Сталинабад, 1954. – №5. – С.83-85.
10. Киличев Б.Е. Топонимлардаги ранг билдирувчи сўзлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, УрДУ, 2022. – Б. 145-148.
11. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фанл. номз. ... диссер. – Тошкент: 2007. – Б.85-86.
12. Мусин Р. Сўз мағзидан ер бағрига. – Тошкент: Фан, 1967. – Б.16.
13. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б.248-250.
14. Оvezov Ж.К. История племен мурчали// Труды Ютаке. Том. 5. – Ашхабад, 1955. – С.113.
15. Охунов Н. Жой номлар тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б.77.
16. Туробов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноийконимларининг таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б.59.
17. Ўзбек тилининг иҳоҳли лугати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2008, – Б.335-337.